



"OROL DENGIZI: EKOLOGIK MUAMMO VA UNING YECHIMLARI"

Baltabaeva Nargiza Orazbayevna

Qoraqalpoq davlat universiteti , Chet tillarni fakulteti

1-kurs talabasi

Annotaciya: *Bu maqola Orol dengizi tarixi, qurib qolish sabablari, tadqiqotlar va uni qaytarish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar va loyihalar haqida. Orol dengizi bir vaqtlar juda katta va suv jonzotlariga boy bo'lgan. Lekin afsuski u quriy boshlagan va hozirda global ekologik muammoga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham butun dunyo mamlakatlari Orolni qayta tiklash ilojlarini qilishmoqda.*

Kalit so'zlar : *Orol dengizi, Yevrosiyo, Ko'k orol, Borsakelmas, O'lik dengiz , yerosti suvlari, ekologik, sun'iy yomg'ir, infratuzilma, Jahon banki, sayoz, Amudaryo.*

Orol dengizi – O'rta Osiyodagi eng katta berk dengiz . Ma'muriy jihatdan Orol dengizining yarmidan ko'proq janubi-g'arbiy qismi O'zbekiston, shimoli-sharqiy qismi Qozog'iston hududida joylashgan. O'tgan asrning 60-yillarigacha Orol dengizi maydoni orollari bilan o'rtacha 68,0 ming km² ni tashkil etgan. Kattaligi jihatidan dunyoda to'rtinchi (Kaspiy dengizi, Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi Viktoriya ko'lidan keyin), Yevrosiyo materigida (Kaspiydan keyin) ikkinchi o'rinda edi. Dengiz shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha cho'zilgan, uzunligi 428 km. Orol dengizida 300 dan ortiq orol bo'lgan. Ularning 80% dengizning janubi-sharqiy qismida. Eng kattalari Ko'korol (273 km²), Vozrojdeniye (216 km²) va Borsakelmas (133 km) edi. Dengiz cho'l zonasida joylashganidan uning yuzasidan har yili 1 m qalinlikdagi suv bug'lanadi. Bu esa keyingi davrda dengizga daryolar olib kelgan suv, yog'in va yer osti suvlaridan ortikdir. Shuning uchun iqlimiy o'zgarishlar natijasida Orol dengizi suvining sat-hi yillar davomida o'zgarib turgan. Mas, 1785-yildan dengizda suv sathi ko'tarila boshlagan bo'lsa, 1825-yildan pasaygan, 1835—50 yillarda yana ko'tarilgan, 1862-yil kamaygan. Ko'korol 1880-yilda yarim orolga aylanib qolgan. 1881-yil suv sathi pasaygan. 1885-yildan Orol dengizida suv sathi yana ko'tarila boshlagan.

Orol dengizi suvining sathi Amudaryo va Sirdaryo suvining rejimi bilan bog'likligidan, bu ikki dare suvi sugorishga qancha ko'p sarflansa, dengizda suv shuncha kamaya borgan. Ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi natijasida dengizga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildanyilga kamaya bordi. Oqibatda dengizda suv sathi jadal sur'atlarda pasaya boshladi.

Hozirgi kunda Orol dengizi 3 bo'lakka bo'lingan: birinchisi – kichik va sayoz shimoliy qismi (sho'rligi – 8—13g/l); ikkinchisi – nisbatan kattaroq maydonga ega bo'lgan va sayoz sharqiy qismi (sho'rligi – 69— 72 g/l); uchinchisi – eng chuqur hisoblangan g'arbiy qismi



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

(sho'rligi – 68-69 g/l). Rossiya konferensiyasi Orol dengizi qurishi sekinlashganini xulosa qilib uni shu holatda saqlashga chaqirdi.

Hozirgi vaqtda O'rta Osiyoni umumiy muammosiga aylanib qolgan. Dengiz hozirda „o'lik dengiz“ deb xisoblanmoqda. Tirik organizm dengizda deyarli yo'q. Dengizning qurigan soxillaridagi to'planib qolgan erdagi tuzlar shamol esganda changlar bilan aralashib, inson salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. O'sha erdagi aholida suv muammosiga duch kelinmoqda. Bundan tashqari deyarli Orol dengizining yarmi qurib qolayotganidan, hech kim qayg'urmayapti.

Orol dengizining qurishining asosiy sababi bu xo'jalik ehtiyojlariga ishlatilishi ya'ni paxta, bug'doy sug'orilishiga Amudaryo va Sirdaryodan foydalanganliklari uchun Orol dengiziga suv kam etib kela boshlagan. Shu tufayli Orol dengizi sekin-asta quriy boshlagan. Orol dengizi suvining sathi Amudaryo va Sirdaryo suvining rejimi bilan bog'likligidan, bu ikki dare suvi sugorishga qancha ko'p sarflansa, dengizda suv shuncha kamaya borgan. Ayniqsa, o'tgan asrning 60-yillaridan sug'oriladigan ekin maydonlarining kengaytirilishi na-tijasida dengizga Amudaryo va Sirdaryodan quyiladigan suv miqdori yildanyilga kamaya bordi. Oqibatda dengizda suv sathi jadal sur'atlarda pasaya boshladi. Hozirgi kunda Orol dengizi 3 bo'lakka bo'lingan: birinchisi – kichik va sayoz shimoliy qismi ; ikkinchisi – nisbatan kattaroq maydonga ega bo'lgan va sayoz sharqiy qismi; uchinchisi – eng chuqur hisoblangan g'arbiy qismi. Rossiya konferensiyasi Orol dengizi qurishi sekinlashganini xulosa qilib uni shu holatda saqlashga chaqirdi. Hozirgi vaqtda O'rta Osiyoni umumiy muammosiga aylanib qolgan. Dengiz hozirda „o'lik dengiz“ deb xisoblanmoqda. Tirik organizm dengizda deyarli yo'q. Dengizning qurigan soxillaridagi to'planib qolgan erdagi tuzlar shamol esganda changlar bilan aralashib, inson salomatligiga jiddiy xavf tug'diradi. O'sha erdagi aholida suv muammosiga duch kelinmoqda. Bundan tashqari deyarli Orol dengizining yarmi qurib qolayotganidan, hech kim qayg'urmayapti. Orol dengizining qurishining asosiy sababi bu xo'jalik ehtiyojlariga ishlatilishi ya'ni paxta, bug'doy sug'orilishiga Amudaryo va Sirdaryodan foydalanganliklari uchun Orol dengiziga suv kam etib kela boshlagan. Shu tufayli Orol dengizi sekin-asta quriy boshlagan.

Orol dengizini birinchi marta A. I. Butakov 1848—49 yillarda tadqiq etgan va haritaga tushirgan. Bundan tashqari, Geologiya va mineralogiya fanlari doktori, rossiyalik tadqiqotchi Sergey Krivonogovning aytishicha, "dengizni tiklash imkoniyati mavjud. Buning uchun suv havzasiga qo'shimcha suv berish talab etiladi. Har yili, hech bo'lmaganda, 20 kilometr kub suv bilan to'ldirilganda ham, u kengaya boshlaydi. Bundan tashqari, uning tiklanishi iqlim va tektonik ta'sirlar, masalan, yerosti suvlarining kelishiga ham bog'liq hisoblanadi. Loyiha doirasida, tadqiqotchilar suv havzasi cho'kindilarini yuza qismidan eng quyi qismigacha burg'u yordamida kovlab, cho'kindi jinlardan namuna oldi. Olingan namunalarni o'rganish orqali olimlar Orol dengizining 20—24 ming yil avval paydo bo'lganligini aniqlagan. Holbuki, o'tgan asr oxirida olimlar dengiz uzog'i bilan 10 ming yil oldin paydo bo'lganini aytishar edi. Shuningdek, undagi o'zgarishlar haqida aniq ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Xulosa



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

qilinishicha, Orol dengizi o'z tarixida kamida to'rt marta yo'qolib, yana qayta tiklangan. Ya'ni, dengiz bilan bugungi kunda yuz berayotgan holat birinchi marta sodir bo'lmadi,"-deb ta'kidlashmoqda.

1992-yilda dengizni qayta tiklash zarurligi masalasi jiddiy ko'tarildi. Shunda YUNESKO Germaniya federal ta'lim va tadqiqotlar vazirligi bilan birgalikda Orol dengizi deltasini ekologik tadqiqotlar va monitoring qilish loyihasining birinchi bosqichini tiklash uchun asos sifatida boshladi. Loyiha to'rt yil davomida amalga oshirildi. Keyinchalik Orolni qutqarish xalqaro

jamg'armasi tashkil etildi. Endi gap ikkinchi bosqichni boshlash haqida ketmoqda. Birinchisidan farqli o'laroq, u yanada murakkab va ko'p funksiyali. Moliyalashtirish nafaqat suv inshootlari va tegishli infratuzilmani qurish va qayta ishlashga, balki iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qamrab oluvchi tadbirlarni qo'llab-quvvatlashga ham yo'naltiriladi. Turizm, dam olish, baliq xo'jaligi, chorvachilik, o'simlikshunoslik va o'rmonlarni tiklash kabi sohalarda tashabbuslarni amalga oshirish, shu jumladan Orol dengizining qurigan tubiga daraxt va butalar ekish rejalashtirilgan. Ular tuproqdagi namlikni saqlashga va sho'rlanishning oldini olishga yordam beradi. Bundan tashqari, Jahon banki qurilishga sarmoya kiritib, yaratilgan infratuzilmani uzoq muddatli saqlash va boshqarish masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

Shu qatorda, O'zbekiston Orol dengizini qayta tiklash uchun sun'iy yomg'ir yog'dirish texnologiyasi ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan tizim bulutlarni generatsiya qilish va kimyoviy moddalarsiz sun'iy yomg'ir yog'dirish imkonini beradi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, dengiz qayta tiklanishi uchun kamida 5-7 yil kerak bo'ladi. Va bu islohotlar amalga oshishiga ishonch bildirmoqda loyiha muallifi - Olimjon Yusupov.

Albatta, hamma bu loyihalar foyda berishini xohlaydi, chunki bu nafaqat O'zbekiston balki butun dunyoni tashvishga solayotgan dolzarbu masalalardan biridir